



DUAL TA'LIM – TA'LIM YO'LIDAGI SIFATLI ISLOHOT

Muhammadiev Yigitali G'oniyeovich

Paxtachi tuman 1-son texnikumi tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dual ta'lim tizimining mazmun-mohiyati, afzalliklari hamda zamonaviy ta'limdagi o'rni tahlil qilinadi. Dual ta'limning nazariy bilim va amaliy tajribani uyg'unlashtirgan holda malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ushbu modelning ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, yoshlar bandligini ta'minlash hamda ta'lim sifatini oshirishdagi roli asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: dual ta'lim, ta'lim islohoti, amaliy ko'nikma, integratsiya, bandlik, zamonaviy ta'lim modeli.

So'nggi yillarda O'zbekiston ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, yuqori malakali, amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirilgan. Shu nuqtai nazardan, dual ta'lim tizimini joriy etish mamlakatimizda ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlashning eng samarali mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Dual ta'lim – bu nazariy bilimlarni ta'lim muassasasida, amaliy tajribani esa ishlab chiqarish korxonalarida o'zlashtirishga asoslangan tizim bo'lib, uning asosiy maqsadi bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining so'nggi qaror va farmonlarida dual ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 29-martdagi "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi 163-son qarori, 2025-yil 16-yanvardagi "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-son qarori, 2023-yil 7-dekabrdagi "Professional ta'lim muassasalariga yil davomida o'quvchilarni dual ta'lim shaklida o'qishga qabul qilish tizimi joriy etilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qarorlari bilan O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'limning huquqiy asoslari mustahkamlandi.

Bu borada Germaniya, Janubiy Koreya va Xitoy tajribalari asosida yaratilgan model milliy ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda. Ayniqsa, kasb-hunar maktablari, texnikumlar hamda oliy ta'lim muassasalarida dual o'qitish shakllarining kengaytirilishi amaliy ta'limning sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda.

O'zbekistonda dual ta'lim professional ta'limda tez suratlarda qullanilib, o'zini oqlayotganini ko'rishimiz mumkin. Dunyoning yetakchi ta'lim shakllaridan biri bo'lgan dual ta'limni oliy ta'lim shasida qo'llash bugungi kunning dolzarb muammolaridan deb bilamiz. Respublikamizda bu sohadaham qator ishlar amalga oshirilmoqda. 2023- yil 12-iyunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlik o'rnatishga qaratilgan



choratadbirlar to'g'risida"gi farmoni bunga misol bo'la oladi. Farmondan ko'zlangan asosiy maqsad uyushmagan yoshlarni, ayniqsa, xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash, bunda ishtirok etgan tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash va oliy ta'lim tizimida "Kasb egasi" dual ta'lim tizimida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yishdan iboratdir.

Yurtimizda ta'lim sohasiga "dual ta'lim" tushunchasining kirib kelishiga nima sabab bo'ldi? – Hammamizga ma'lum, iqtisodiyotni rivojlanishida o'rta bo'g'in kadrlarining o'rni alohida hisoblanadi. Ishlab chiqarish, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida ishchi kasb va mutaxassisliklarga bo'lgan ehtiyoj juda yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etadi.

An'anaviy ta'lim shaklida o'quvchi/talaba oliy yoki professional ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni ko'proq egallab, amaliyot qismini juda oz soatlarda korxona va tashkilotlarda o'taydi. Shuning uchun, rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi o'rganilib, zamonaviy texnologiyalar va dastgohlarda o'qish bilan bir vaqtda korxona, tashkilotlarda ish faoliyatini olib borish imkoniyatini beruvchi dual ta'lim shakli O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritildi.

"Dual" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, biror narsaning ikki qismga taalluqliligi, ikkita narsani ifodalovchi, ikki qismdan iborat, degan ma'nolarni bildiradi. Dual ta'lim – o'quvchi/talabaga ta'limni o'z yo'nalishiga mos tashkilotda mehnat qilish bilan birga olib borish imkoniyatini beruvchi tizimdir.

Bunda yoshlar 2-3 kun ta'lim muassasasida nazariy bilimlarni va 3-4 kun korxona va tashkilotlarda haqiqiy ish jarayonlarida amaliy ko'nikmalarni egallaydi. Dual ta'lim shaklida tahsil olayotgan o'quvchi/talaba korxona va tashkilotlarda ishga qabul qilinganda ularga korxona tomonidan ustoz birlashtiriladi va oylik maoshi to'lanadi.

Dual ta'limning asosiy maqsadi ishlab chiqarishda ishlash uchun asosiy ko'nikmalarni shakllantirgan malakali va bilimli bitiruvchini tayyorlash, oliy ta'lim tizimida dual ta'limning O'zbekiston modelini ishlab chiqishdir.

Oddiy qilib aytganda, dastlabki kunlardan o'qishga kirisha oladigan va uni yuqori professional darajada bajara oladigan mutaxassisni tayyorlash. Bundan tashqari, dual ta'lim muayyan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislar uchun ish beruvchilarning buyurtmasini shakllantirishni o'z ichiga oladi.

Dual ta'limning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

birinchidan, bitiruvchilarning yuqori foizini ishga joylashtirishni ta'minlaydi, chunki ular ish beruvchining talablariga to'liq javob beradi. Ta'lim olish ishlab chiqarish korxonalarining talablariga imkon qadar yaqin bo'lishi kerak. Shunisi e'tiborga loyiqki, eng kichik korxona dual ta'lim ishtirokchisi bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, bilim olish uchun yuqori motivatsiyaga erishiladi, kelajakda ishchining psixologiyasi shakllanadi.

Mutaxassislarga ehtiyoji mavjud bo'lgan korxona dual ta'lim jarayonlarini amaliyotga tatbiq etish uchun ta'lim tashkiloti bilan shartnoma tuzadi. Shuningdek, talaba va ish beruvchi o'rtasida shartnoma, talaba, ish beruvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida uch tomonlama shartnoma tuziladi. Shartnomalarda barcha tomonlarning majburiyatlari va moliyaviy sharoitlari ko'rsatiladi.

Dual ta'limning an'anaviy ta'limga nisbatan afzalliklarni keltiramiz: ishlab chiqarish va ta'limni integratsiya qilish (nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning bog'liqligi); amaliy



ko'nikmalar (talabalar nazariy bilimlarni real ish sharoitlarida qo'llash imkoniga ega bo'ladilar); ish tajribasi (talabalar o'qish davomida ish tajribasiga ega bo'ladilar); mehnat bozoriga moslashish (bitiruvchilarni mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassislar sifatida tayyorlash); ishga joylashish imkoniyati (ko'p hollarda talabalar ishlab chiqarishda tajriba o'tagan joyida ishga qoladilar); ish beruvchilar bilan hamkorlik (oliy o'quv yurtlari va korxonalar o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanadi); ishlab chiqarish talablariga muvofiq ta'lim (talabalar ishlab chiqarish jarayoniga mos ravishda tayyorlanadilar).

Qolaversa avval talabalar bo'sh vaqtlarida turli sohalarda, asosan savdosotiq, xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda ishlab pul topgan bo'lsa, dual ta'lim tizimida o'z yo'nalishi bo'yicha ham o'qib, ham ishlab pul topayotganini alohida qayd etish lozim. Ko'rib turganimizdek, dual ta'lim tizimi – zamonaviy mehnat bozori talablariga javob beradigan, nazariya va amaliyotni uyg'unlashtirgan samarali ta'lim shaklidir. Bu tizim nafaqat talabalar, balki ish beruvchilar va ta'lim muassasalari uchun ham foydali hisoblanadi.

Mazkur modelning joriy etilishi ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlaydi. An'anaviy ta'lim tizimida bitiruvchilar ish boshlashda moslashuv davrini boshdan kechirsa, dual ta'limda bu jarayon ancha yengillashadi.

Chunki talaba o'qish davomidayoq muayyan kasb muhitida faoliyat yuritadi, mehnat intizomi, kasbiy mas'uliyat va jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu esa ish beruvchilar uchun ham malakali, tayyor kadrlar zaxirasini yaratadi.

Dual ta'limning yana bir muhim jihati — ta'lim dasturlarining amaliy ehtiyojlarga moslashuvchanligidir. Korxonalar o'z faoliyati yo'nalishidan kelib chiqib, o'quv dasturlarini takomillashtirishda ishtirok etadi.

Bu esa o'quv rejaları va fanlarning real iqtisodiy talablar asosida shakllanishiga olib keladi. Natijada, ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi dinamik mexanizmga aylanadi.

Ushbu model yoshlarning bandligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Dual ta'lim orqali talaba o'qish jarayonidayoq ish joyiga ega bo'lishi, hatto muayyan darajada daromad topishi mumkin. Bu esa yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini oshiradi, kasbga bo'lgan qiziqishini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy faolligini kuchaytiradi. Shu bilan birga, dual ta'lim hududiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatib, mahalliy korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kengaytiradi.

Xulosa qilib aytganda Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston ta'lim tizimida dual ta'lim modelini joriy etish ta'limni amaliyot bilan uzviy bog'lashga xizmat qiladigan samarali mexanizmdir.

Bu tizim o'quvchilarga nazariy bilimni ishlab chiqarish tajribasi bilan uyg'unlashtirish, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanish imkonini beradi.

Dual ta'limning rivojlanish bosqichlari shundan dalolat beradiki, dastlabki tajriba loyihalaridan boshlab, bugungi kunda bu tizim respublika miqyosida bosqichma-bosqich kengayib bormoqda. Hukumat qarorlari, normativ-huquqiy asoslar va xalqaro hamkorlik natijasida dual ta'limni rivojlantirish uchun mustahkam tashkiliy va metodik baza yaratilgan.



Shu bilan birga, ishlab chiqarish korxonalarining faol ishtirokini kuchaytirish, o'quv dasturlarini zamonaviy texnologiyalar asosida yangilash va o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimning barqaror ishlashi uchun muhim omil hisoblanadi.

Dual ta'lim O'zbekiston ta'lim tizimining modernizatsiyasida strategik ahamiyatga ega bo'lib, u kelajakda kasbiy ta'lim sifatini oshirish, yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash va iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga xizmat qiluvchi asosiy yo'nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida" GI O'RQ637-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-5013007>.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Professional ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari haqida"gi qarori, 29.03.2021 yildagi 163-son (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.03.2021-y., 09/21/163/0250-son, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-son; 11.12.2023-y., 09/23/647/0926-son)
3. Umurov, Z. L. (2025). Dual ta'lim va ishlab chiqarish uyg'unligi – zamonaviy ta'lim konsepsiyasi. Inter Education & Global Study: Ilmiy-nazariy va metodik jurnal, №3. ISSN 2992- 9024 (online).
4. Z.L. Umurov DUAL TA'LIM VA ISHLAB CHIQARISH UYG'UNLIGI ZAMONAVIY TA'LIM KONSEPSIYASI // Inter education & global study. 2025. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/dual-ta-lim-va-ishlab-chiqarish-uyg-unligi-zamonaviy-ta-lim-konsepsiyasi> (дата обращения: 15.02.2026).
5. Nodirov, J. M., va Abdulakimov, A. (2024). Professional ta'lim tizimida Germaniya tajribasi asosidagi dual ta'limning ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishdagi ahamiyati. Ekonomika i Sotsium, №1(116). www.iupr.ru